O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI
QARORI

2022 - yil 21 - fevral 39-10-212-Q/22 Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 16-fevraldagi 103-10-0-Q/22-son qarori ijrosini ta`minlash to`g`risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi "Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PQ–112-son qarori, **Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 16-fevraldagi 103-10-0-Q/22-son qarori**ga muvofiq, shuningdek, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini **"Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili"**da amalga oshirishga oid davlat dasturi hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi PQ–112-son qarori hamda **Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 16-fevraldagi 103-10-0-Q/22-son qarori** ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

a) 2022/2023-o‘quv yilidan boshlab ta’lim muassasalarida o‘quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko‘nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo‘lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste’dodlarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi belgilanganligi;

umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida:

mazkur qarorning 1-ilovasidagi ro‘yxatda keltirilgan milliy musiqa

cholg‘ularidan kamida bittasida kuy ijro etish ko‘nikmalari o‘rgatilishi hamda bu haqda ularning ta’lim to‘g‘risidagi hujjatiga (shahodatnoma) tegishli qayd kiritilishi;

musiqa fani uchun haftasiga belgilangan bir o‘quv soati hamda unga qo‘shimcha ravishda har hafta milliy musiqa cholg‘ularida kuy ijro etish amaliy to‘garaklari va fakultativ darslari o‘tkazilishi;

mazkur qarorning 1-ilovasidagi ro‘yxatda keltirilgan milliy cholg‘ulardan kamida bittasida, 2023/2024-o‘quv yilidan boshlab esa kamida uchtasida kuy ijro etish mahoratiga ega bo‘lish musiqa fani o‘qituvchilari uchun majburiy hisoblanishi;

musiqa fani uchun ajratilgan o‘quv soatlari doirasida "Hayotimga hamrohdir cholg‘u" shiori ostida cholg‘u ijrochiligi dars mashg‘ulotlari yo‘lga qo‘yilishi;

notalar to‘plamlari va maxsus musiqiy adabiyotlar bilan ta’minlash umumta’lim maktablarini darsliklar va o‘quv-metodik qo‘llanmalar bilan ta’minlash tizimiga kiritilishi;

o‘quvchilarning darsdan tashqari vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida ularning qiziqishlariga ko‘ra milliy musiqa cholg‘ularida kuy ijro etish, tasviriy va amaliy san’at, hunarmandchilik yo‘nalishlarida amaliy to‘garaklar (keyingi o‘rinlarda – amaliy to‘garaklar) tashkil etilishi;

amaliy to‘garaklar rahbarlariga "Barkamol avlod" bolalar maktablari to‘garak rahbari uchun belgilangan bazaviy tarif stavkalari qo‘llanilishi;

amaliy to‘garaklarni olib borish hisobi "Elektron kundalik" dasturi orqali amalga oshiriladi hamda har chorakda to‘garak ishtirokchilarining hisobot konsertlari tashkil qilinishi;

musiqa san’ati bo‘yicha professional ta’lim hamda oliy ta’lim to‘g‘risidagi hujjatga ega bo‘lgan, kamida 3 ta milliy musiqa cholg‘ularida mahorat bilan kuy ijro eta oladigan mutaxassislarni asosiy ish joyidan bo‘sh vaqtida u yerdagi mehnatga haq to‘lash shartlarini saqlab qolgan holda o‘rindoshlik asosida umumiy o‘rta ta’lim muassasalari musiqa fani o‘qituvchisi va musiqa yo‘nalishidagi to‘garak rahbari lavozimiga to‘liq stavkada ishga qabul qilishga ruxsat berilishi;

musiqa fani o‘qituvchilarini kamida uchta milliy musiqa cholg‘ularida kuy ijro etishga o‘rgatish xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi doirasida amalga oshiriladi, bunda qayta tayyorlash (malaka oshirish) kurslarida

mashg‘ulot olib borish uchun madaniyat va san’at sohasi vakillari shartnoma asosida jalb etilishi;

umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va oliy ta’lim muassasalarida:

O‘zbekiston davlat filarmoniyasi va uning hududiy bo‘limlari tomonidan boshqa madaniyat muassasalari bilan hamkorlikda lektoriy konsertlarini o‘tkazish yo‘lga qo‘yilishi;

lektoriy konsertlari ta’lim va madaniyat muassasalarida tashkil etiladi hamda o‘quvchi va talabalarning musiqiy madaniyati va savodxonligini yuksaltirishga, estetik didi, dunyoqarashini kengaytirishga va musiqani his qilishiga qaratilgan amaliy mashg‘ulotlardan iborat bo‘lishi;

lektoriy konsertlarining o‘tkazilganligi haqida tegishli ta’lim, madaniyat muassasasi, tuman (shahar) hokimligi yoki boshqa mas’ul tashkilot rahbari va O‘zbekiston davlat filarmoniyasi bosh direktori tomonidan dalolatnoma tuzilishi;

lektoriy konsertlarini o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlar mahalliy budjet mablag‘lari (umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va professional ta’lim muassasalarida) va budjetdan tashqari mablag‘lar (oliy ta’lim muassasalarida) yoki qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan dalolatnoma asosida moliyalashtirilishi;

Madaniyat vazirligi hay’ati qarori bilan umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va oliy ta’lim muassasalarida madaniyat va san’at sohasidagi davlat mukofotlari bilan taqdirlangan ijodkorlar rahbarligida ularning "Mahorat maktablari" tashkil etilishi;

"Mahorat maktablari" rahbari bo‘lgan ijodkorlar Madaniyat vazirligining budjetdan tashqari jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda – Jamg‘arma) mablag‘lari hisobidan asosiy ish joyi orqali har oyda bazaviy hisoblash miqdorining o‘n besh baravari miqdorda qo‘shimcha moddiy rag‘batlantirib borilishi;

umumiy o‘rta ta’lim muassasalari, bolalar musiqa va san’at maktablari, madaniyat markazlari:

2022–2024-yillarda belgilangan reja-jadvalga muvofiq 3 tadan milliy musiqa cholg‘ulari to‘plamlari bilan ta’minlanishi;

milliy musiqa cholg‘ulari to‘plamlari bilan ta’minlash xarajatlari O‘zbekiston Respublikasi respublika budjeti va tegishli mahalliy budjetlardan teng ulushlarda ajratiladigan mablag‘lar hisobidan moliyalashtirilishi;

milliy musiqa cholg‘ulari to‘plamlari Madaniyat vazirligi va Xalq ta’limi vazirligining hududiy boshqarmalari tomonidan markazlashgan tartibda xarid qilinadi va tegishli davlat muassasalariga yetkazib berilishi, bunda xarid komissiyasining tarkibiga milliy musiqa cholg‘ularida kuy ijro eta oluvchi yuqori malakali mutaxassislar kiritilishi, cholg‘ular ular tomonidan sinab ko‘rilishi;

har yili:

o‘quvchilar va talabalar o‘rtasida mazkur qarorga ilovadagi ro‘yxat bo‘yicha "ta’lim muassasasi – tuman (shahar) – viloyat (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri) – respublika" kesimida madaniyat va san’at sohasidagi respublika ko‘rik-tanlovlari tashkil etilishi;

respublika ko‘rik tanlovlarining "ta’lim muassasasi" bosqichida tegishli ta’lim muassasasi joylashgan mahalladagi yoshlarning faol ishtirokini ta’minlash Yoshlar yetakchilari va madaniyat markazlari zimmasiga yuklanishi;

b) 2022-yilda respublika miqyosida o‘tkaziladigan ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlarining yillik kalendar rejasi (keyingi o‘rinlarda 2022-yil uchun kalendar reja) tasdiqlanganligi:

2022-yilda O‘zbekiston Respublikasida xalqaro va respublika miqyosidagi festivallarni o‘tkazish reja-jadvali 3a-ilovaga muvofiq;

2022-yilda Madaniyat vazirligi tomonidan "Madaniyat karvoni" shaklida hududlarda konsert-tomosha tadbirlarini o‘tkazish reja-jadvali 3b-ilovaga muvofiq;

2022-yilda O‘zbekiston davlat filarmoniyasi tarkibidagi badiiy jamoalar tomonidan uning hududiy bo‘limlari bilan birga konsert-tomosha tadbirlarini o‘tkazish reja-jadvali 3v-ilovaga muvofiq;

2022-yilda O‘zbekiston milliy va davlat simfonik orkestrlari, O‘zbek milliy maqom san’ati markazining Yunus Rajabiy nomidagi Maqom ansambli va "O‘zbek davlat sirki" davlat muassasasi ijodiy (badiiy) jamoalarining hududlarga gastrol safarlarini tashkil etish reja-jadvali
3g-ilovaga muvofiq;

2022-yilda Madaniyat vazirligi tizimidagi davlat teatrlari jamoalarining hududlarga gastrol safarlarini tashkil etish reja-jadvali 3d-ilovaga muvofiq;

2022-yilda O‘zbekiston milliy simfonik orkestri va O‘zbekiston davlat simfonik orkestrining Toshkent shahrida yirik konsert-tomosha tadbirlarini tashkil

etish reja-jadvali 3e-ilovaga muvofiq;

2022-yilda respublika miqyosida kasb bayramlarini nishonlash munosabati bilan tashkil etiladigan konsert-tomosha tadbirlari ro‘yxati
3j-ilovaga muvofiq;

2022-yilda hududlardagi madaniyat muassasalari tomonidan o‘zarolik tamoyili asosida boshqa hududlarga gastrol safarlarini, hududning "madaniyat kunlari" tadbirlarini tashkil etish reja-jadvali 3z-ilovaga muvofiq;

2022-yildan boshlab madaniyat va san’at sohasini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning quyidagi qo‘shimcha choralari joriy etiladi:

v) Aholi orasida keng ommalashgan Internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlarda "O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi" nomli sahifalar tashkil etilib, ular orqali Jamg‘arma mablag‘lari hamda sahifalarni yuritishdan kelib tushgan mablag‘lar hisobidan o‘zbek xalqi milliy madaniyatini targ‘ib etuvchi quyidagi tanlovlar joriy etilganligi:

musiqa cholg‘ularida (milliy, opera, simfoniya, oratoriya, estrada, boshqa mumtoz va zamonaviy janrlarda) bajarilgan eng yaxshi 100 ta ijro;

eng yaxshi 100 ta milliy qo‘shiq;

eng yaxshi 100 ta milliy musiqiy klip;

karaoke yordamida qo‘shiq ijro qilishga mo‘ljallangan, eng yaxshi 100 ta musiqiy kompozitsiya (qo‘shiq matni bilan);

davlat va xususiy teatrlarda sahnalashtirilgan eng yaxshi 50 ta spektakl.

Bunda, har bir yo‘nalish bo‘yicha g‘oliblar yil davomida joylashtirilgan va har yili 15-dekabr holatiga foydalanuvchilar tomonidan eng ko‘p ko‘rilgan ijrolar orasidan aniqlanadi hamda Madaniyat vazirligi hay’atining qarori bilan tegishlicha bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravarigacha bir martalik pul mukofoti bilan taqdirlanishi;

yuridik shaxslarning foyda solig‘i hamda aylanmadan soliqni hisoblashda soliq solinadigan baza ushbu tashkilot xodimlari va ularning oila a’zolari uchun ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlarini o‘tkazish, shu jumladan ushbu tadbirlarga kirish uchun biletlar xarid qilishga yo‘naltirilgan mablag‘lar summasiga kamaytiriladi, bunda mazkur chegiriladigan mablag‘lar soliq solinadigan bazaning 2 foizidan oshmasligi;

milliy musiqa cholg‘u asboblarini ishlab chiqarishdan olgan daromadlari joriy hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha jami daromadning kamida 60 foizini tashkil etadigan tashkilotlar uchun aylanmadan soliq va ijtimoiy soliq stavkasi 2022-yil 1-apreldan 2025-yil 1-yanvarga qadar 1 foiz etib belgilanganligi;

Madaniyat vazirligiga o‘z tizimidagi barcha tashkilotlar uchun budjet tashkilotining rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘larini sarflash nisbatini (moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga hamda xodimlarni ijtimoiy himoya qilish va moddiy rag‘batlantirish tadbirlariga) mustaqil belgilash huquqi berilganligi;

g) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-yanvardagi PF–52-son Farmoniga asosan Madaniyat vazirligining budjetdan tashqari jamg‘armasi tashkil etilganligi ma’lumot uchun qabul qilinganligi;

Bunda:

Jamg‘arma mablag‘lari respublika budjetidan ajratiladigan mablag‘lar, Madaniyat vazirligi tizimidagi tashkilotlar foydasining muassisga yo‘naltiriladigan qismi hamda qonunchilikda belgilangan yoki taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan shakllantirilishi;

quyidagi tadbirlar Jamg‘armaga Davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar hisobidan moliyalashtiriladi:

"Mahorat maktablari" rahbari bo‘lgan ijodkorlarni qo‘shimcha moddiy rag‘batlantirish;

ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlarining yillik kalendar rejasi asosida "Madaniyat karvoni" shaklida hududlarda konsert-tomosha tadbirlarini, O‘zbekiston davlat filarmoniyasi, O‘zbek milliy maqom san’ati markazi, Yunus Rajabiy nomidagi Maqom ansambli, "O‘zbek davlat sirki" davlat muassasasi, davlat teatrlari, O‘zbekiston milliy simfonik orkestri va O‘zbekiston davlat simfonik orkestri tomonidan konsert-tomosha tadbirlarini o‘tkazish;

"Inson qadri uchun" ezgu g‘oyasi asosida Madaniyat vazirligi tomonidan beriladigan davlat buyurtmalarini moliyalashtirish;

"O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi" nomli sahifalar orqali tashkil etiladigan tanlovlar g‘oliblarini taqdirlash;

Madaniyat vazirligi tizimidagi muassasalar tomonidan o‘tkaziladigan ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlarining reklamasini tashkil qilish,

telekanallardan efir vaqtini sotib olish;

qonunchilik hujjatlarida belgilangan boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish.

O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "Madaniyat va ma’rifat" telekanali Madaniyat vazirligining Bosh axborot hamkori etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman Xalq ta’limi bo`limi (M.O`tkirov) 2022-yil 1-iyunga qadar:

har bir umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida direktor buyrug‘i bilan amaliy to‘garaklar tashkil etilishini, bu haqida o‘qituvchi va o‘quvchilarning xabardor qilinishini ta’minlasin;

umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida musiqa fani o‘qituvchilariga bo‘lgan talab va kelgusidagi ehtiyojni muntazam ravishda tahlil qilib borsin, zaruratga ko‘ra, viloyat Madaniyat boshqarmasi bilan birgalikda musiqa fani o‘qituvchilarini tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalariga buyurtmalar berib borsin;

4. Tuman Madaniyat bo`limi (G`.Xojiyev):

a) musiqiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan lektoriy konsertlarining badiiy dasturini ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

b) tuman Madaniyat bo`limi tizimidagi konsert-tomosha muassasalari, sirk va teatr xodimlari orasidan "Madaniyat karvoni" tarkibiga kiritiladigan ijodkorlar (doimiy a’zolar va muayyan tadbirlarda ishtirok etuvchilar) ro‘yxatini shakllantirsin;

v) 2022-yilda tuman miqyosida o‘tkaziladigan ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlarining yillik kalendar rejasini tasdiqqa kiritsin;

g) 2022-yil uchun kalendar rejada belgilangan tadbirlarni o‘tkazish joyi, vaqti, ishtirok etadigan ijodkorlar haqida ommaviy axborot vositalari va axborot tarqatishning boshqa manbalari orqali, shu jumladan tadbir o‘tkaziladigan hududlar aholisini kamida ikki oy oldin xabardor qilish tizimini yo‘lga qo‘ysin;

d) har oyning 25-sanasiga qadar barcha darajadagi davlat boshqaruvi organlari, muassasalari, korxonalari va xo‘jalik jamiyatlariga ular joylashgan hududda kelgusi oyda tashkil etiladigan ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlari haqida ma’lumot berib borsin.

5. Tuman Madaniyat bo`limi (G`.Xojiyev):

bir oy muddatda o‘z hududlarida 2022-yilda o‘tkaziladigan ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlarining yillik kalendar rejalarini tasdiqlasin;

2022-yil uchun kalendar rejada belgilangan tadbirlarning yuqori saviyada o‘tkazilishi uchun zarur tashkiliy masalalarni hal qilsin;

o‘zarolik tamoyili asosida o‘z hududida faoliyat yuritayotgan madaniyat muassasalari jamoalarining boshqa hududlarga gastrol safarlarini, hududning "Madaniyat kunlari" tadbirlarining samarali tashkil etilishini ta’minlasin;

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ushbu hududda uzoq yillar samarali faoliyat olib borgan madaniyat va san’at sohasi vakillariga hamda iste’dodli yosh ijodkorlarga ipoteka krediti asosida sotib olinayotgan uy-joy qiymatining 50 foizi miqdorida, biroq O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-dekabrdagi PF–33-son Farmoniga muvofiq belgilanadigan uy-joy hisoblangan qiymatining 50 foizidan yuqori bo‘lmagan miqdorda subsidiya berilishi bo`yicha taklif kiritsin.

6. Tuman Turizm va sport ishlari bo`limi (A.Niyazov) 2022-yil uchun kalendar rejaga kiritilgan tadbirlarni mahalliy va xorijiy turistlar orasida keng targ‘ib qilish choralarini ko‘rsin, turistlar oqimining o‘zgarishini inobatga olib kalendar rejaga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha takliflarni doimiy ravishda Madaniyat boshqarmasiga taqdim etib borsin.

7. Tumandagi barcha davlat organlari, muassasalari va korxonalari har chorakda kamida bir marotaba budjetdan tashqari mablag‘lari hamda kasaba uyushmalari mablag‘lari hisobidan o‘z xodimlarining madaniy-estetik hordiq chiqarishlari uchun ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlarini tashkil etish, konsert, sirk va teatrlarga kirish uchun bilet va abonementlarni xarid qilish amaliyotini joriy etsin.

8. O‘zbekiston Yoshlar ishlari agentligi tuman bo`limi (O.Abdulxayev), tuman Madaniyat bo`limi (G`.Xojiyev):

har yili:

o‘quvchilar va talabalar o‘rtasida "ta’lim muassasasi - tuman - viloyat" kesimida madaniyat va san’at sohasidagi ko‘rik-tanlovlari tashkil etish hamda respublika ko‘rik tanlovlarining "ta’lim muassasasi" bosqichida tegishli ta’lim muassasasi joylashgan mahalladagi yoshlarning faol ishtirokini ta’minlash Yoshlar

yetakchilari va madaniyat markazlari zimmasiga yuklansin.

9. Barcha tashkilot va idoralarning birinchi rahbarlari ushbu qaror hamda qaror bilan tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi” va rejalarda belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida va to‘liq bajarilishini ta’minlash uchun shaxsan mas’ul ekanligi belgilansin.

10. Quyidagilar:

Tuman Xalq ta’limi bo`limi tasarrufidagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalari ta’minlanishi lozim bo‘lgan milliy musiqa cholg‘ulari ro‘yxati
1-ilovaga muvofiq;

umumta’lim maktablari, bolalar musiqa va san’at maktablari, madaniyat markazlarini milliy cholg‘u asboblari bilan ta’minlash reja-grafigi 2-ilovaga muvofiq;

2022-yilda Madaniyat vazirligi tomonidan “Madaniyat karvoni” shaklida Toshkent tumanida konsert-tomosha tadbirlarini o‘tkazish reja-jadvali 3-ilovaga muvofiq;

O‘quvchilar va talabalar o‘rtasida o‘tkaziladigan madaniyat va san’at sohasidagi tuman ko‘rik-tanlovlari ro‘yxati 4-ilovaga muvofiq;

Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan tuman madaniyat bo‘limini maxsus avtotransport vositasi bilan ta’minlash rejasi 5-ilovaga muvofiq;

2022-yilda Toshkent tumanida xalqaro va respublika miqyosidagi festivallarni o‘tkazish reja-jadvali 6-ilovaga muvofiq;

Toshkent tumanida 2022–2023-yillarda milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

11. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari I.Dostonov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **O.Rustamov**

Тошкент туман ҳокимининг
2022 йил 21 февралдаги
39-10-212-Q/22-сон қарорига
1-илова

Tuman Xalq ta’limi bo`limi tasarrufidagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalari ta’minlanishi lozim bo‘lgan milliy musiqa cholg‘ulari

RO‘YXATI

1. Dutor
2. Do‘mbira
3. Doyra
4. Tanbur
5. Rubob
6. G‘ijjak
7. Nay

Izoh: Madaniyat boshqarmasi vaviloyat Xalq ta’limi boshqarmasining takliflari asosida ushbu ro‘yxatga viloyat hokimining qarori bilan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.

O‘quvchilarning qiziqishlaridan kelib chiqib, ushbu ro‘yxatda keltirilmagan boshqa musiqa cholg‘ularida kuy ijro etish ko‘nikmalari o‘rgatilishi ham tashkil etilishi mumkin.

Тошкент туман ҳокимининг
2022 йил 21 февралдаги
39-10-212-Q/22-сон қарорига
2-илова

Umumta’lim maktablari, bolalar musiqa va san’at maktablari, madaniyat markazlarini milliy cholg‘u asboblari bilan ta’minlash REJA-JADVALI*

T/r	Hudud nomi	Jami xarid qilinadigan cholg‘u asboblari soni**	Umumta’lim maktablari uchun				Bolalar musiqa va san’at maktablari uchun				Madaniyat markazlari uchun			
			Jami	2022 yil	2023 yil	2024 yil	Jami	2022 yil	2023 yil	2024 yil	Jami	2022 yil	2023 yil	2024 yil
1	Toshkent tumani	184	168	56	56	56	6	2	2	2	10	10		

**) Har bir muassasa 3 yil davomida har yili bir to‘plamdan cholg‘ular bilan ta’minlanadi.*

***) Har bir muassasada mavjud cholg‘ular xatlovdan o‘tkaziladi, xatlov natijasiga ko‘ra mazkur rejada belgilangan cholg‘ular soni o‘zgarishi mumkin.*

Тошкент туман ҳокимининг
2022 йил 21 февралдаги
39-10-212-Q/22-сон қарорига
3-илова

2022-yilda Madaniyat vazirligi tomonidan "Madaniyat karvoni" shaklida hududlarda konsert-tomosha tadbirlarini o‘tkazish REJA-JADVALI

№	Tuman nomi	Tadbir bo‘lib o‘tadigan oy va sana
1	Toshkent tumani	22.10.2022 y

Тошкент туман ҳокимининг
2022 йил 21 февралдаги
39-10-212-Q/22-сон қарорига
4-илова

O‘quvchilar va talabalar o‘rtasida o‘tkaziladigan madaniyat va san’at sohasidagi viloyat ko‘rik-tanlovlari RO‘YXATI

t/r	**Ko‘rik-tanlov nomi**	**Ta’lim muassasasi bosqichi**	**Tuman (shahar) bosqichi**	**Viloyat bosqichi**	**O‘tkazish uchun mas’ul boshqarma va tashkilotlar**
1.	**"San’atim senga, obod yurtim!"** ijodiy ko‘rik-tanlovi	mart	mart	aprel	**Viloyat Madaniyat boshqarmasi,** Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi, Xalq ta’limi boshqarmasi
2.	**"Yoshlar ovozi"** tanlovi	mart	aprel	may	**Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi,** Madaniyat boshqarmasi, Xalq ta’limi boshqarmasi
3.	**"Kamalak yulduzlari"** bolalar ijodiyot festivali	mart	aprel	may	**Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi,** Yoshlar ittifoqi viloyat kengashi, Madaniyat boshqarmasi, Xalq ta’limi boshqarmasi
4.	**"Ranglar jilosida- ona diyor"** rasmlar tanlovi	aprel	may	iyul	**Badiiy akademiya,** Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi, Xalq ta’limi boshqarmasi
5.	**"Yosh havaskorlar"** amaliy san’at ko‘rik-tanlovi	sentabr	sentabr	oktabr	**Badiiy akademiya,** Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi, Xalq ta’limi boshqarmasi
6.	**Yosh maqomchilar** tanlovi	sentabr	sentabr	oktabr	**Viloyat Madaniyat boshqarmasi,** Xalq ta’limi boshqarmasi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari, Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi

7.	**"Xalq cholg‘ulari ijrochilari"** ko‘rik-tanlovi	sentabr	oktabr	noyabr	**Viloyat Madaniyat boshqarmasi,** Xalq ta’limi boshqarmasi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari, Yoshlari shlari agentligi viloyat boshqarmasi
8.	Mukarrama Turg‘unboeva nomidagi **milliy raqs ijrochilari** ko‘rik-tanlovi	sentabr	oktabr	noyabr	**Viloyat Madaniyat boshqarmasi,** Xalq ta’limi boshqarmasi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari, Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi
9.	Botir Zokirov nomidagi **zamonaviy Estrada qo‘shiqchilar** tanlovi	sentabr	oktabr	noyabr	**Viloyat Madaniyat boshqarmasi,** Xalq ta’limi boshqarmasi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari, Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi
10.	**Bolalar va yoshlar teatr jamoalari tanlovi**	**sentabr**	**oktabr**	**noyabr**	**Xalq ta’limi boshqarmasi,** Viloyat Madaniyat boshqarmasi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari, Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi
11.	**"Yosh ijrochilar" tanlovi**	**dekabr**	**yanvar**	**fevral**	**Viloyat Madaniyat boshqarmasi,** Xalq ta’limi boshqarmasi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari, Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi

Izoh: Tadbirlar o‘tkaziladigan joylarda Ichki ishlar boshqarmasi jamoat tartibini saqlanishini hamda Sog‘liqni saqlash bo`limi tez tibbiy xizmat ko‘rsatishni bepul tashkil qiladi, shuningdek, sanitariya qoidalariga, normalariga va gigiena normativlariga qat’iy rioya qilinishini nazorat qiladi.

Тошкент туман ҳокимининг
2022 йил 21 февралдаги
39-10-212-Q/22-сон қарорига
5-илова

Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan tuman madaniyat bo‘limlarini maxsus avtotransport vositasi bilan ta’minlash REJASI*

mln. so‘m

T/r	Tashkilot nomi	Avtotransport vositasi *(Damas)* **							
		Jami		2022 yil		2023 yil		2024 yil	
		soni *	summasi**	soni	summasi	soni	summasi	soni	summasi
1	Toshkent tumani					1	80		

**) Tuman (shahar) madaniyat bo‘limlarida mavjud avtotransport vositalari xatlovdan o‘tkaziladi. Xatlov yakunlari bo‘yicha mazkur rejada belgilangan avtotransport vositalari soni o‘zgarishi mumkin;*

***) Avtotransport vositasi narxi o‘zgarganda, ushbu rejada ko‘zdat utilgan mablag‘ miqdori o‘zgarishi mumkin.*

Тошкент туман ҳокимининг
2022 йил 21 февралдаги
39-10-212-Q/22-сон қарорига
6-илова

2022-yildaToshkent tumanida xalqaro va respublika miqyosidagi festivallarni o‘tkazish
REJA-JADVALI

T/r	Tadbir nomi	Tadbir o‘tkaziladigan joyi va vaqti*	Tadbirni moliyalashtirish manbasi	Mas’ul ijrochilar
2022-yilda xalqaro miqyosda o‘tkaziladigan tadbirlar				
1.	An’anaviy xalqaro etno festival	Toshkent tumani, iyun	Mahalliy byudjet mablag‘lari	Toshkent tumani hokimligi*(I.Dostonov),* Tuman Madaniyat bo`limi *(G`.Xojiyev)*

Izoh: tadbirlarning o‘tkazish muddatlariga Vazirlar Mahkamasi orqali O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi bilan kelishgan holda o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.

Тошкент туман ҳокимининг
2022 йил 21 февралдаги
39-10-212-Q/22-сон қарорига
7-илова

Toshkent tumanida 2022-2023-yillarda milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha "YO‘LXARITASI"

t/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyalashtirishmanbalari	Mas’ul ijrochilar
1.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-son qarorining 3-banida belgilangan tadbirlarni yuqori saviyada tashkil etish maqsadida 2022 yilda o‘tkaziladigan ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlarining yillik kalendar rejasini tasdiqlash. Ushbu kalendar rejani tasdiqlashda Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 23 fevraldagi 98-son qarori bilan tasdiqlangan Ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlarining yillik kalendar rejalarini shakllantirish va tasdiqlash tartibi to‘g‘risidagi nizom talablariga rioya qilish. 2023 yilda va kelgusi yillarda o‘tkaziladigan ommaviy-madaniy va konsert- tomosha tadbirlarining yillik kalendar rejalarini tasdiqlashda bunday tadbirlar 2022 yilda belgilanganidan kam bo‘lmagan miqdorda tashkil etilishini nazarda tutish.	Vazirlar Mahkamasining farmoyishiga taklif kiritish Har yili	2022 yil 1 mart	-	Tuman hokimining o‘rinbosari (I.Dostonov), tuman madaniyat bo`limi (G`.Xojiyev), tuman ichki ishlar boshqarmasi (D.Mirzamamedov), tuman moliya bo`limi (B.Abduraxmonov)
2.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 fevraldagi PQ-112-son qarorida belgilangan tegishli respublika ko‘rik- tanlovlarini o‘tkazish tartiblarini tasdiqlash. Bunda quyidagilarni nazarda tutish: ko‘rik-tanlovlarning maktab bosqichini o‘tkazishda mahallalardagi Yoshlar yetakchilarining faol ishtirok etishini ta’minlash, shuningdek tanlov g‘oliblari va Yoshlar yetakchisini munosib rag‘batlantirish; ko‘rik-tanlovlarni o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlarni Davlat budjeti, Madaniyat vazirligining budjetdan tashqari jamg‘armasi, "Yoshlar daftari" jamg‘armasi va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtirish.	Ijrochilarning qarori, tegishligi bo‘yicha zaruratga ko‘ra Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasiga taklif kiritish	2022 yil mart	-	Tumanmadaniyat bo`limi (G`.Xojiyev), tuman Xalq ta’limi bo`limi (M.O`tkirov), O‘zbekiston Yoshlar ishlari agentligi tuman bo`limi (O.Abdulxayev)

3.	Umumta’lim maktablari va madaniyat markazlarida "Maktabda madaniyat markazi" loyihasi asosida ixtiyoriylik asosida shartnoma bilan to‘garaklar faoliyatini yo‘lga qo‘yish.	Amaliy chora-tadbirlar	2022 yil Mart oyidan boshlab muntazam	Mahalliy budjet mablag‘lari, homiylik xayriyalari	Tuman madaniyat bo`limi *(G`.Xojiyev),* Tuman Xalq ta’limi bo`limi (M.O`tkirov)
4.	Ta’lim muassasalari o‘quvchi va talabalarining musiqiy savodxonligini oshirish maqsadida shartnoma asosida lektoriy konsertlarini tashkil etish.	Amaliy chora-tadbirlar	2022 yil aprel	Ta’lim Muassasalarining budjetdan tashqari mablag‘lari, mahalliy budjet mablag‘lari, homiylik xayriyalari	Tuman madaniyat bo`limi *(G`.Xojiyev),* Tuman Xalq ta’limi bo`limi (M.O`tkirov)
5.	Tumanda bitta ko‘chma sirk (shapito, dorbozlar guruhlari) hamda hayvonot bog‘ini tashkil etish va doimiy faoliyat yuritishini ta’minlash.	Amaliy chora-tadbirlar	2022 yil dekabr	Mahalliybudjetmablag‘lari	Tuman hokimining o‘rinbosari (I.Dostonov), tuman madaniyat bo`limi (G`.Xojiyev)
6.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 fevraldagi "Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PQ-112-son qarorda begilangan vazifalar ijrosini samarali ta’minlash maqsadida shahar va tuman bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish. Jumladan: Malallalar kesmida 2022 yilda o‘tkaziladigan madaniy-ma’rifiy va konsert-tomosha tadbirlarining yillik kalendar rejasini tasdiqlash; hududlardagi madaniyat va san’at tashkilotlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash; hududlardagi jamoalar, san’atkor va madaniyat xodimlarini qo‘shimcha rag‘batlantirish; madaniyat va san’at muassasalari va umumta’lim maktablarida tegishli to‘garaklar faoliyati samarali tashkil etishga ko‘maklashish; mahallalar, umumta’lim maktablari hamda madaniyat va san’at muassasalarida faoliyat yuritayotgan havaskorlik jamoalarining konsert dasturlarini tashkil qilish.	Ijrochilar qarori	2022 yil10 fevral	Mahalliy budjet mablag‘lari, homiylik xayriyalari	Tuman madaniyat bo`limi (G`.Xojiyev)
7.	Eng yaxshi madaniyat tashkilotlari viloyat tanlovini tashkil etish va ularni munosib rag‘batlantirish. Viloyat tanlovi g‘olibi bo‘lgan madaniyat tashkilotlarini rag‘batlantirish.	Amaliy chora-tadbirlar	Namunali tashkil etish - 2022 yil oktabr, tanlov tashkil etish - 2022 yil dekabr	Mahalliy budjet mablag‘lari, homiylik xayriyalari	Tuman madaniyat bo`limi *(G`.Xojiyev)*
8.	Dorbozlar guruhlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda respublika bo‘ylab gastrol safarlarini tashkil etish.	Ijrochilar qarori	2022-2023 yillar	Mahalliy budjet mablag‘lari	Tuman madaniyat bo`limi *(G`.Xojiyev),* Tuman moliya bo`limi *(B.Abduraxmonov)*